

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**YONG'IN XAVFSIZLIGI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR
MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

RAHBARIY HUJJAT

**AVTOMATIK YONG'IN O'CHIRISH QURILMALARI.
O'RNATISHGA TALABLAR, ISHLARNI BAJARISH
VA QABUL QILISH QOIDALARI**

RH 01- 001:2022

Rasmiy nashr

TOSHKENT 2022

UDK 614.844

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djuraev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022-yil 15-oktabrdagi 472-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

RH 01-001:2022 "Avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari. O'rnatishga talablar, ishlarning bajarish va qabul qilish qoidalari"

RH 01-001:2022 "Avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari. O'rnatishga talablar, ishlarning bajarish va qabul qilish qoidalari" kuchga kirgandan so'ng, YoXRH 01-001:2007 "Yong'in o'chirish avtomatik qurilmalari. O'rnatishga talablar va qabul qilish ishlari qoidalari" o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

RH 01-001:2022 “Avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmalari. O‘rnatishga talablar, ishlarning bajarish va qabul qilish qoidalari”

Qo‘llanilish sohasi

Mazkur qoidalar suvli, ko‘pikli, gazli, aerezolli, kukunli va robotlashtirilgan avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmalarini (keyingi o‘rinlarda–AYoO‘Q) montaj qilish, sozlash, sinov ishlarini olib borishda va foydalanishga topshirish ishlariga tadbiiq etiladi.

Ob‘ektlarda AYO‘Q larni loyihalash, montaj, sozlash, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlari qonun hujjatlariga muvofiq xabardor etish tartibining tasdiqnomasi yoki belgilangan namunadagi litsenziyalarga ega bo‘lgan tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Ushbu qoidalar D sinfidagi yong‘inlarni (GOST 27331 bo‘yicha), shuningdek kimyoviy aktiv modda va materiallarni o‘chirish uchun mo‘ljallangan AYO‘Qni montaj qilish, sozlash, ishlarni bajarishda va qabul qilishda qo‘llanilmaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmalarini montaj qilish ishlari loyiha-smeta va ishchi hujjatlarga (ishchi loyihasi, ishlab chiqaruvchilarning texnik hujjatlari), shaharsozlik normalari va qoidalariga (SHNQ 2.04.09 “Bino va inshootlarning yong‘in avtomatikasi”) va ushbu qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash, montaj ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish, bino, inshoot va poydevorlarni qabul qilish, montaj qiluvchi tashkilotga asbob-uskunalarni, mahsulotlar va materiallarni topshirish tartibi SHNQ 1.03.01 “Korxonalar, binolar va inshootlarning kapital qurilishi uchun loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi” va SHNQ 3.01.01 “Qurilish ishlab chiqarishni tashkil qilish” normativ hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

3. AYO‘Q texnik vositalarini montaj qilish jarayonida loyiha hujjatlaridan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi. Loyihadan barcha chetlatishlar hujjatlarni ishlab chiqqan loyihalash tashkiloti bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

4. AYO‘Qlarni montaj qilishda foydalaniladigan uskuna, buyum va materiallar loyiha spetsifikatsiyasiga muvofiq hamda sifatini tasdiqlovchi sertifikatlar, pasportlar yoki boshqa hujjatlarga ega bo‘lishi lozim.

5. Uskunalar va buyumlarni saqlash sharoitlari davlat standartlari, texnik shartlari va ishlab chiqaruvchi korxonalarining texnik hujjatlarida belgilangan talablarga javob berishi lozim.

6. Materiallarni saqlash sharoitlar SHNQ 3.01.01 “Qurilish ishlab chiqarishni tashkil qilish” normativ hujjatida bayon etilgan talablarga javob berishi kerak.

7. Montaj ishlarini amalga oshirish davrida mehnat muhofazasi va yong‘in xavfsizligi normalari, qoidalari va chora-tadbirlarga amal qilinishi lozim.

2-bob. Atama, ta‘riflar va qisqartmalar

8. Mazkur qoidalarda quyidagi ta‘riflar, belgilar va qisqartmalardan iborat atamalar qo‘llaniladi:

avtomatik yong‘in o‘chirish qurilmasi (AYoO‘Q)–yong‘in signalizatsiyasi tizimi yoki qurilmaning o‘zida o‘rnatilgan yong‘inni inson aralashuvisiz aniqlovchi texnik vositalar orqali qabul qilingan boshqaruv signalidan so‘ng o‘t o‘chirish moddasining uzatilishini (chiqarilishini) hamda yong‘in to‘g‘risidagi signalni tashqi zanjirlarga uzatib berilishini ta‘minlovchi yong‘in o‘chirish qurilmasi;



HUJJATNING TO‘LIQ VERSIYASIGA KIRISH CHEKLANGAN

Hujjatni sotib olish uchun buyurtma berishingiz kerak.

Hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutida buyurtma qilishingiz mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun telefon **71 212-68-68**